

**Qahramon ISMOILOV,  
QDPI tadqiqotchisi.**

**A.ARBERRI – TASAVVUF SHUNOS  
("MISTITSIZM" ASARI BO'YICHA TAHLILLAR)**

**Annotatsiya:** Ushu maqolada ingliz sharqshunosi va tasavvufshunosi A.Arbellining hayoti va ijodi hamda uning "Mistisizm" asaridagi ilk tasavvuf namoyandalari borasidagi tahlillar keltirilgan bo'lib, maqola oxirida olim tomonidan amalga oshirilgan nashr ishlari ro'yxati berilgan.

**Kalit so'zlar:** Arberry, Qur'onshunoslik, islom ilohiyot va falsafasi, tasavvuf, fors va arab tillari

**Kakhramon ISMAILOV,  
KSPI researcher.**

**A. ARBERRY - SUFIST  
(ANALYSIS OF THE WORK "MYSTICISM")**

**Annotation:** This article deals with the life and works of the English orientalist and mystic A.Arberry and the early figures of Sufism are analyzed by means of his work "Mysticism".

**Keywords:** Arberry, Qur'anic studies, Islamic theology and philosophy, Sufism, Persian and Arabic languages

**Кахрамон ИСМАИЛОВ,  
Исследователь КГПИ.**

**А. АРБЕРРИ - СУФИСТ  
(АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «МИСТИКА»)**

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются жизнь и творчество английского востоковеда и мистика А.Арбери, анализируются ранние деятели суфизма на основе его труда «Мистицизм».

**Ключевые слова:** Арбери, Коранические исследования, исламское богословие и философия, суфизм, персидский и арабский языки

Ingliz sharqshunosi Artur Arberri 1905-yil 12-mayda Buyuk Britaniyaning janubiy qismidagi Xempshir grafligigiga qarashli Portsmut shahrida tavallud topgan. U 1924-yilda klassik stipendiya bilan Kembrij universitetiga o‘qishga kiradi va keyinchalik R.A.Nikolson va boshqa taniqli olimlardan fors va arab tillarini o‘rganadi. O‘qishni tamomlab Qohirada tahsil oladi. Undan so‘ng, shu vaqt ichida u Falastin, Livan va Suriyaga ham tashrif buyuradi.

1932 yilda Arberri Qohira universitetining klassika bo‘limi mudiri etib tayinlanadi, ammo 1934 yilda Londonga qaytib kelib, “India ofis” (“India office”) kutubxonasida kutubxonachi yordamchisi sifatida ishlay boshlaydi. 1939 yilda Ikkinci Jahon urushi boshlanishi bilan u Harbiy idoraga, so‘ngra Londondagi Axborot vazirligiga o‘tkaziladi. Aynan shu davrda forscha “Ruzgar-e now” (“Yangi asr”) jurnaliga hamda fors va arab tillaridagi boshqa nashrlarga muharrirlik qiladi. 1944 yilda u London universiteti Sharq va Afrika tadqiqotlari maktabidagi fors tili kafedrasida (V.M.Minorski<sup>1</sup> o‘rniga) soha mutaxassisni sifatida faoliyat yuritadi hamda 1946 yili arab tili kafedrasiga o‘tadi. 1947 yilda u Kembrijdagi Ser Tomas Adams<sup>2</sup> arab tili professorligiga tayinlandi va u yerda umrining so’nggiga qadar (1969 yil 2 oktyabr)gacha ishladi.

A.Arberri 1963 yil Malta universitetining faxriy doktori unvoniga, 1964 yili Eron shohi tomonidan berilgan birinchi darajali “Neshan-e Danes” ordeniga sazovor bo‘lgan, shunigdek, Eron Akademiyasi, Qohiradagi Arab tili Akademiyasi va Damashq arab akademiyasi a’zoligiga qabul qilingan. Uning to‘liq bibliografiyasida u yozgan, tarjima qilgan yoki tahrir qilgan jami to’qsonga yaqin kitob, shunga o‘xhash miqdordagi ilmiy maqolalar, ko‘plab sharhlar va boshqa qisqa ishlar keltirilgan. Uning yozuvlari orasida fors va arab tilidagi asarlarning tahrirlangan matnlari, mumtoz fors va arab she’riyatining tarjimalari, Qur’onshunoslik, islom ilohiyot va falsafasi, tasavvuf, fors va arab tili,

<sup>1</sup> Ma’lumot uchun qarang: <https://centrasia.org/person2.php?st=1094762673>; <https://ru.wikipedia.org/wiki>

<sup>2</sup> Ma’lumot uchun qarang: <https://ru.wikipedia.org/wiki>

bibliografiya va kutubxonalar kataloglari, talabalar uchun kitobxonlar va antologiyalar, Malta adabiyoti va mashhur adabiyotlar mavjuddir.

A.Arberrining eng maqtovga sazovor ishi Qur'oni karimning ingliz tilidagi tarjimasi bo'lib, uning ulkan ishi ushbu sohadagi avvalgi barcha sa'y-harakatlarning o'rnini bosib ketdi. Uning "India ofis" ("India office"), Kembrij universiteti va Chester Bitti kutubxonalaridagi sharq qo'lyozmalari kataloglari islom sohasida faoliyat yuritayotgan barcha olimlar uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

\*\*\*

A.Arberri dunyoning deyarli barcha islomshunos va tasavvufshunoslariiga shu mazmundagi asarlari bilan ma'lum va mashhurdir. Bugungi o'zbek tasavvufshunoslari ham bevosita xorijda olib borilgan va shu kunlarda hamon yirik tadqiqotlar kuzatilayotgan bir davrda ayni tadqiqotlarni e'tibordan chetda qoldirmasliklari zarur bo'ladi. Tadqiqotimizning oldiga qo'ygan maqsadi ham xorijdagi tasavvufshunoslikka bo'lgan munosabat hamda undagi yutuqlar va kamchiliklarga xolis baho berishdan iboratdir.

Ushbu maqolamiz ham bir jiddiy tadqiqotda keltirilgan mashhur so'fiylarning ilk namoyandalariga bag'ishlangan. Artur Arberri islom tasavvufi bilan ham qiziqqan bo'lib, u o'zining yirik "Mistitsizm<sup>3</sup>" deb atalgan tadqiqotida tasavvufning eng ilg'or taraqqiy etgan davri sifatida shunday deydi: "*IX asrdan boshlab sodda ko'rinishdagi zohidlik murakkab ilohiy ta'limot nazariyasiga o'tdi. Shundan keyin teosofyaning rivojlangan yuqori ko'rinishiga o'tish holati yuz berdi. Ayni shu davrning so'fiylaridan Shaqiq Balxiy (vafoti 194/810) tasavvufda mavjud bo'lgan ilohiy hol va tavakkul kabi masalalarni yechishga muvaffaq bo'ldi*". Yuqoridagi qarashlarni berish bilan birga olim o'z fikrini qisman inkor etib, ular eski qarashlarga munosibligini, Shaqiq Balxiyning davriga kelib maqom va hol o'rtasidagi tafovut allaqachon isbotlab berilganligini aytadi.

---

<sup>3</sup> Arberry A.J. *Mysticism. The Cambridge History of Islam. Vol-2B. Edited by P.M. Holt. Pp.604-631*

Yana bir mashhur so‘fiy Qushayriy (vafoti 465/1072) esa ilohiy ta’limot nazariyotchisi sifatida hollarga ta’rif berib<sup>4</sup>, ularni “ne’matlar, maqomlarning mehnat mahsuli” degan. Bulardan keyin yuqorida ta’kidlangan ma’rifat (gnosis) tushunchasi yuzaga kelganligi haqida aytildi. Olimning yozishicha, ma’rifat tushunchasi VII asrdayoq Abdulloh Ibn Muborak Marviy (vafoti 181/797)ning asarlarida tilga olingan. Bu olim mashhur an’anachi bo‘lib, Payg‘ambar (s.a.v.)ning zuhd haqidagi fikrlarini (Hadislar orqali) to‘plagan. Zunnun al-Misriy(vafoti 246/861) ma’rifat tushunchasini so‘fiylarga to‘liq bog‘langan maqom sifatida ta’riflagan. Chunki ma’rifatsiz haqiqatga erishib bo‘lmaydi. U ayni maqom so‘fiylarda bo‘lishi kerak bo‘lgan ilm ekanligini ta’kidlab, ma’rifat haqida shunday deydi: “Ma’rifat xususida iddao (o‘zini ulug‘ bilimdon deb fahmlash) sohibi bo‘lishdan saqlan! Chunki ma’rifat iddaosi kishini mahv va halok etishi mumkin<sup>5</sup>”. A.Arberri Zunnun al-Misriy haqida quyidagicha ma’lumot beradi: “U alkemyoga oid ko‘plab afsonalar aytib, ierogliflarning ma’nosini ochib beradigan hamda karomatlar ko‘rsatish qobiliyatiga ega bo‘lgan<sup>6</sup>”. Zunnun al-Misriy o‘sha vaqtda (ya’ni o‘z davrida – Q.I.) so‘fiylar harakati bir tarmoq sifatida mavjud bo‘lganligi haqida ham ma’lumot bergen. Lekin “Mistitsizm”da ushbu tarmoqlar haqida batafsil ma’lumot keltirilmaydi. Zunnun al-Misriy o‘sha paytlarda kuchli ilm sohibi bo‘lganligi tufayli eronlik dindorlar tomonidan, bag‘dodliklarning bid’atga yo‘l qo‘yayotganliklari tufayli Misrga ushbu muammoning oldini olish uchun chaqirtirilgan edi. U Misrdalik paytida ikki asosiy teosofiya maktabi bilan yaqindan tanishdi. Zunnun al-Misriy 246/861 yili vafot etadi. Uning qabri esa Misr ehromlari yaqinida.

“Mistitsizm”da keltirilgan yana bir shaxs, mashhur olim Abu Yazid (Boyazid) Bistomiy (vafoti 261/875) Xurosondagi “zavq” ilohiy maktabining hurmatli kishilaridan biri bo‘lgan. U Alloh bilan bandaning o‘rtasidagi bog‘liqlik borasidagi qarashlarini ilgari surgan. Ushbu so‘zlar unga taalluqli:

<sup>4</sup> Qarang: Иброҳим Ҳаққул. Тасаввуф сабоқлари. Бухоро-2000. – Б. 91-94.

<sup>5</sup> Иброҳим Ҳаққул. Тасаввуф сабоқлари. Бухоро-2000. – Б. 82-83.

<sup>6</sup> O‘sha asar: Mysticism... – P. 607.

“Subhani ma azamati sha’ni!” (Glory be to me! How great is my majesty!)<sup>7</sup>. U Payg‘ambar (s.a.v.)ning Me’rojga qilgan safarlaridan qattiq mutaassir bo‘lgan<sup>8</sup>.

O’sha davrda yashab o‘tgan so‘fiylardan yana biri, Bag‘dod ilohiyot nazariyasi maktabining asoschisi Al-Xaris ibn A’sad al-Muxasibiy (*165/781 yili Basrada tavallud topgan, uning vafoti 243/837 yilga to‘g‘ri keladi*)dir. Muxasibiyning “Al-Ri’aya li-huquq Allah” (“Allah buyruqlariga rioya qilish”) asari ilohiy ta’limot asoslariga bag‘ishlangan bo‘lib, undan keyingi yozuvchilar bu asardan ham foydalanganlar. Uning “Kitob al-nasa’ih” (“Bahslar kitobi”) asari islom dinidan ajralib qolgan 70 tarqoq firqadan omon qolishga bag‘ishlangandir.

So‘fiylar tomonidan ko‘plab asarlar yozilishi bilan birga Qur’oni karimga ham sharhlar berilgandir. Birinchi bo‘lib Qur’onga sharh bergan kishi Sahl ibn Abdulloh al-Tustariy (vafoti 283/896) bo‘lib, u maktublar va yorug‘lik ta’limoti<sup>9</sup>ning rivoj topishiga sabab bo‘ldi. Ushbu ta’limot keyinchalik Ibn Masarradan Ibn al-Arabiygacha o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Ular Andalus maktabiga tegishli zotlardir. Yana shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, o’sha paytlarda Abu Abdulloh at-Termiziy va Ibn al-Arabiyning ilohiy ta’limotga bag‘ishlangan ko‘plab asarlari ham olam yuzini ko‘rdi.

Tarixda o‘zining g‘ayritabiyy holatlari va gaplari bilan ko‘pchilikni lol qoldirgan, Allah ishqida hatto o‘zini yo‘qotib qo‘yish holatiga ham borgan va ayni shu – shath (ekstaz) holatida “Anal Haq”ni aytib yuborgan so‘fiy Mansur Xalloj, ko‘pchilik olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. A.Arberri ham bu haqda, ya’ni Mansur Xalloj va uning boshiga tushgan holatlariga o‘z fikrlarini bayon qiladi. Mansur Xalloj 244/858 yilda Eron viloyatlaridan birida tavallud topgan. U ortodoksal islomdan chetda bo‘lgan so‘fiy bo‘lib, darveshlikda musulmon o‘lkalarining juda katta hududlarida hamda Hindistonda, hatto Xitoy

<sup>7</sup> “O‘zing yorlaqagin! Tangrim naqadar buyukdir!”

<sup>8</sup> O’sha asar: Mysticism... – P. 608.

<sup>9</sup> Bu yerda maktublar va yorug‘lik ta’limoti haqida so‘z ketgan, lekin ularga oydinlik kiritilmagan, shuning uchun ularni batafsil yoritishning imkonini bo‘lmadi.

chegaralarida ham bo‘lgan. Ayni jahongashtalik davrlarida so‘fiy hamrohlarini o‘zining g‘ayritabiyy harakatlari va gaplari bilan hayratga solgan hollari juda ko‘p bo‘lgan. U 309/922 yili Bag‘dodda “shirk keltiruvchi, kofir” sifatida dorga osiladi. A.Arberri Xallojning asari “Kitob at-Tavosin”dan bir necha satr keltiradi. Olimning yozishicha, ushbu satrda “Anal Haq” iborasi Mansur Xallojning dushmanlari tomonidan “o‘zini maqtash”ga yo‘yilgan.

O‘sha satrlar garchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushunilganda, g‘ayritabiyydek tushunilsa-da, uni keltirib o‘tishni joiz deb bilamiz:

*- Agar Xudoni tanimasangiz, loaqal Uning belgilarini biling. Men o‘sha belgiman, Men Haqman, chunki Haq orqali men boqiy haqdirman. Mening do‘sralarim va ustozlarim Iblis va Fir’avnlardir. Iblis do‘zax o‘tiga mahkum etilgan bo‘lsa-da, hamon u o‘z so‘zidan qaytmadi. Fir’avn dengizga cho‘ktirilgan bo‘lsa-da, Xudo bilan o‘zining o‘rtasidagi hech bir narsani tan olmadi va o‘z so‘zida qoldi. Meni ham garchi azoblab o‘ldirsalar-da, qo‘l oyoqlarimni kessalar-da so‘zimdan tonmayman...*

Albatta, bu satrlar Mansur Xallojga tegishli bo‘lib, bizningcha, bu so‘zlar uni aybdor, gunohkor sanab yurishgan paytlarda yozilgandir. A.Arberrining yozishicha, uning o‘limi bilan bog‘liq afsonani, nasroniylarning chormix (krest)ga tortish haqidagi hikoyasi bilan qiyoslash mumkin<sup>10</sup>.

A.Arberri, garchi ingliz bo‘lsa-da. arab va for tillari bo‘yicha yirik mutaxassisga aylandi hamda ushbu sohada jiddiy asarlar va tarjimalarni amalga oshirdi. Bugun o‘zbek mumtoz adabiyotini tasavvufsiz tasavvur etib bo‘lmasisligi barchamizga oydek ravshan. Shuningdek, tasavvufga munosabat bildirishda, uning ilk – kelib chiqish davri, tarixi haqida ham ozmi-ko‘pmi ma’lumotga ega bo‘lishimiz zarurdir. Buning uchun G‘arb olimlari tomonidan olib borilgan ko‘plab jiddiy tadqiqotlarga ehtiyoj sezilmoqda. Shuni e’tiborga olgan holda, ushbu maqolamizda faqat birgina yirik tadqiqotdan bir shingil ma’lumot

<sup>10</sup> Nicholson A., The idea of personality in Sufism (Cambridge, 1923, 32; “Mysticism”, in T.Arnold; A. Guillaume (edd), The legacy of Islam (Oxford, 1931), 217.

berishga muvaffaq bo‘ldik. Yuqorida zikr etilgan ilk so‘fiy namoyandalari haqidagi ma’lumotlar bugungi o‘zbek tasavvufshunosligida: ilmiy tadqiqotlarda, ilmiy-ommabop nashrlarda ham, qaysidir ma’noda, sharhlab o‘tilgan bo‘lsa-da, biz keltirib o‘tgan ma’lumot va voqealar tafsiloti, bizningcha, ma’lum ma’noda yangilik kasb etishi mumkindir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Arberry A.J. Sufism, An Account of the Mystics of Islam, London, 1950.
2. Arberry A.J. Mysticism. The Cambridge History of Islam. Vol-2B. Islamic Society and Civilization. Edited by P.M.Holt, Ann K.S.Lampton, Bernard Lewis. Cambridge University Press. 2008. – Pp. 604-631.
3. <https://centrasia.org/person2.php?st=1094762673>;  
<https://ru.wikipedia.org/wiki>
4. <https://ru.wikipedia.org/wiki>
5. Иброҳим Ҳаққул. Тасаввуф сабоқлари. Бухоро-2000. – Б. 91-94.
6. Nicholson A., The idea of personality in Sufism (Cambridge, 1923, 32; “Mysticism”, in T.Arnold; A. Guillaume (edd), The legacy of Islam (Oxford, 1931), 217.